


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60722800-Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha)
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «29» 109 dagi 438 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari.....	4
1.2.3.	60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalar egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1	60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	9
2.3.2	60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	9
2.4.	Kvalifikatsiya.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

1. 60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi **60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor – o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) – “Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida respublikada yuritilayotgan davlat kadastrlari turlari bo'yicha foydalaniladigan obyektlari, Kadastr agentligi infratuzilmasi va korxonalari, kadastr turlariga oid yer uchastkalari va ular hududidagi obyektlar, yerdan foydalanish, yer egaliklari, obyektlardan foydalanishning huquqiy holati, miqdori va sifat tavsifi, ulardan foydalanish hamda holatini nazorat qilish va boshqarish;

- kadastr obyektlarini davlat ro'yxatiga olinishi, baholanishi, foydalanishini nazorat qilish;

- kadastr axborot tizimlari;

- loyiha - texnik hujjatlari kabi kasbiy faoliyatning vositalari, usul va uslublari yig'indisini o'z ichiga oladi.

1.2.2. 60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari.

- fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilma(FMMI)sining tuzilishi va uni yuritishni tashkil qilish tartibi;

- fazoviy ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish sohasidagi davlat boshqaruvi;

- davlat kadastrlari yagona tizimi(DKYaT)ga taqdim etiladigan ma'lumotlarning tarkibi va mazmuni;

- DKYaT tarkibidagi davlat kadastrlarining barcha turlari bo'yicha kadastr ma'lumotlarini ishlab chiqish;

- yer uchastkasi va ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat reyestrda ro'yxatga olish;

- kadastr obyektlarini miqdor va sifat hisobini yuritish;

- Davlat kadastrlari yagona tizimi tarkibidagi axborotlarini ishlab chiqish va ularni tizimlash;

- DKYaT tarkibidagi davlat kadastrlarini yuritishni kompleks rivojlantirish bilan bog'liq loyiha - texnik hujjatlarni tayyorlash jarayonlari.

60722800 – *Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60722800 – *Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyiha-konstruktorlik faoliyati;
- ekspluatatsion va texnik servis faoliyati;
- texnologik-ishlab chiqarish faoliyati.

1.2.4. 60722800 – *Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60722800 – *Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida;

- ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda kadastr turlari va obyektlari bo'yicha axborotlardan foydalanish, ularni baholash, muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirlarda qatnashish;

- eksperimental-loyihaviy tadqiqotlarni o'tkazishda namunaviy metodikalar va texnik vositalar hamda qurilmalarni qo'llay olish:

- Davlat kadastrlari yagona tizimi tarkibidagi kadastr turlari bo'yicha yuritish sohasidagi qonunlar, qonun osti hujjatlari, maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, xorijiy davlatlar va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rganish;

- ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ishlanmalarni ishlab chiqishda qatnashish;

- mavzu(topshiriq) bo'yicha ilmiy texnik ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirishni amalga oshirish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etishda qatnashish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar va kreativ yechimlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda zamonaviy elektron dasturlarning qo'llanilishini tahlil qilish, ulardan foydalanish xamda texnik tasnifi, tizimlarni, jarayonlarni, jihozlar va materiallarni standartlashtirish bilan bog'liq tadbirlarda qatnashish;
 - O'zbekiston Respublikasi hududida yagona koordinatalar tizimini ishlash holatida saqlab turish va foydalanish, shu jumladan, doimiy faoliyat ko'rsatadigan sun'iy yo'ldosh orqali kuzatish stansiyalari tarmog'ini yaratish, yuritish va undan foydalanish hisobiga ta'minlash;
 - davlat kadastrlari, kartografik va boshqa turdagi monitoringlarni yuritish asosida O'zbekiston Respublikasi hududida bazaviy fazoviy ma'lumotlarni yaratish va dolzarblashtirish;
 - davlat kadastrlarini yuritishda barcha turdagi kadastrlar yagona tizimini, yer resurslarini boshqarish, yer monitoringi, yer huquqi ishlarini tahlil qilish va olib borishda metodikalar va texnik vositalarni qo'llay olish;
 - kadastr sohasidagi qonunlar, qonun osti hujjatlari, maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rganish;
 - ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
 - internet jahon axborot tarmog'ida FMMI geoportalini shakllantirish hisobiga axborot iste'molchilari uchun ochiq foydalanishga ruxsat berilgan bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlash;
 - atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida kadastrga oid elektron kartalarini tuzishni raqamlashtirishda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini amalga oshirishni o'rganish;
 - kasbiy muammolar yechimini topish va ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;
 - fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
 - birlamchi ishlab chiqarishning bugungi ishini tashkil qila olish va boshqarish;
 - bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash.
- #### **Ishlab chiqarish faoliyatida:**
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
 - faoliyat turlari bo'yicha davlat kadastrlarini yuritish sohasida texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;
 - ishlab chiqarishda hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;
 - zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayoni monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
 - turli maqsadlarga mo'ljallangan geoaxborot tizimlari va servislarini ishlab chiqish;
 - texnik va dasturiy vositalarni yaratish;
 - geoportallarni yaratish va ularni ta'minlash;

- fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlar sifatini tekshirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- kasbga oid muammolar yechimini amaliyotga tatbiq qilish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar turli xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- kadastr faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- davlat kadastrlari yagona tizimini rivojlantirish va takomillashtirish;
- fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarni yaratish va yangilashni amalga oshirish;
- joylardagi kadastr obyektlari to'g'risidagi axborotlar va elektron xaritalarning asl nusxasini yaratish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, yuridik shaxslarning kadastrga oid ishlarni bajarish bilan bog'liq faoliyatini muvofiqlashtirish.

Ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- milliy geografik axborot tizimini, umumdavlat ahamiyatiga molik boshqa geografik axborot tizimlarini yaratish va yuritish;
- umumgeografik, siyosiy-ma'muriy, ilmiy-ma'lumotga va kadastr turlariga oid elektron xaritalarni yaratish;
- joylarning topografik syomkasini bajarish va topografik karta va planlarning asl nusxasini yaratish;
- kadastr obyektlariga oid axborotlarni tizimlash, tahlil etish va ekspluatatsiya qilish;
- turli ahamiyatga ega bo'lgan kadastr obyektlarini ro'yxatga olish va baholash ishlarni bajarish;
- dala sharoitidagi kadastr obyektlarini miqdor va sifat o'lchamlari natijalarini qayta ishlashni bajarish;
- ishlab chiqilgan texnik yechimlarni va loyihalarni joriy qilish.

2. 60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish xamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalanish;
- zamonaviy axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, qonunlar va qonun osti hujjatlar bilan tanishish, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni maqbullashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- fazoviy ma'lumotlarni yaratish, yangilash, ishlov berish, saqlash, taqdim etish, o'zaro integratsiyalash va ulardan foydalanishni ta'minlaydigan FMMI administratori, fazoviy ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchilar, saqlovchilar va foydalanuvchilarning faoliyati bilan tanishish;
- fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlar bazalari va ularning kataloglarini, servislarini, geoaxborot tizimlarini, geoportallarni, FMMI sohasidagi boshqa texnik va dasturiy vositalarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot, tajriba-texnologik hamda tajriba-konstruktorlik ishlarini bilish;
- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- DKYaT asoslarini, uning tarkibini va yuritishni bilishi;
- faoliyat turlari bo'yicha davlat kadastrlarini yuritishda iqtisodiyot tarmoqlari talablarini qanoatlantiruvchi samarali hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etishni bilishi;
- faoliyat turlari bo'yicha davlat kadastrlarini yuritish nazariyasi va texnologiyasi, ular to'g'risida umumiy tushuncha, uning mazmuni va vazifalari, tarkibiy qismlari va bosqichlari haqida tasavvur hosil qilishi;
- faoliyat turlari bo'yicha davlat kadastrlarini, amaliyotda qo'llanib kelinayotgan yo'riqnomalar, me'yoriy hujjatlar va uslubiy ko'rsatmalardan foydalanish; kadastr turlarini, ularga tegishli soha idoralari faoliyatini tashkiliy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tanlash;
- geodeziya, kartografiya va kadastr ishlarini samarali yuritish maqsadida kadastr ma'lumotlarini olish, qayta ishlash va tahlil qilish usullarini;
- kadastr turlarini yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni ta'minlashi;
- ma'muriy hududiy birliklar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi, intensivatsiyalash, faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish haqida tasavvur hosil qilishi;
- kadastr turlari bo'yicha ishlab chiqilgan axborotlardan samarali foydalanilishni iqtisodiy asoslash, ko'chmas mulk bozori va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlari, sohalarda ishlab chiqarishni konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish va joylashtirishni bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlashi;
- davlat kadastrlari yagona tizimini yuritishda boshqarish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va axborotlardan foydalanishni ta'minlashi;
- faoliyat turlari bo'yicha davlat kadastrlariga oid axborotlarni samarali shakllantirish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3 Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladi **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlari- bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (o'quv, ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1. 60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4620	154
Tanlov fanlar	1650	55
Malakaviy amaliyot	720	24
Yakuniy davlat attestatsiyasi	210	7

2.3.2. 60722800 – Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr
1.00		Majburiy fanlar	4620	154	
1.01	MAT1114	Oliy matematika	420	14	1,2,3
1.02	XT1114	Xorijiy til	420	14	1,2,3
1.03	OYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.04	FIZ1105	Fizika	150	5	1
1.05	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	2
1.06	TIL1105	O'zbek (rus) tili	150	5	2
1.07	GEO1110	Geodeziya	300	10	2,3
1.08	JTS1104	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	3
1.09	FAL2104	Falsafa	120	4	4
1.10	KSH2105	Kartashunoslik	150	5	4

1.11	FMM2105	Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi	150	5	5
1.12	KKG2110	Kadastr ishlarida kompyuter grafikasi	300	10	5,6
1.13	YKA2105	Yer kadastrasi asoslari	300	10	5,6
1.14	RYK2110	Raqamli yer kadastrasi	300	10	6,7
1.15	DKA3110	Davlat kadastrlari asoslari	300	10	7
1.16	BIK3110	Bino va inshootlar davlat kadastrasi	300	10	7,8
1.17	DKY3105	Davlat kadastrlarini yuritishning huquqiy ta'minoti	300	10	8,9
1.18	YEM3105	Yer monitoringi	150	5	9
1.19	KIT4105	Kadastr ishlarini tashkil etish	150	5	10
1.20	DSHK4105	Davlat shaharsozlik kadastrasi	150	5	10
1.21	DKY4105	Davlat kadastrlarini yuritishda fazoviy ma'lumotlar	150	5	11
2.00		Tanlov fanlar	1650	55	
2.00		<i>Tanlov fanlar (14 ta fan)</i>	1650	55	4,5,6,7,8,9,10,11
		Jami	6270	209	
		Malakaviy amaliyot	720	24	6,9,12
		Yakuniy davlat attestasiyasi	210	7	12
		Jami	930	31	
		HAMMASI	7200	240	

2.4. Kvalifikatsiya: kadastr bo'yicha muhandis

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, davlat kadastrlari yagona tizimi, tabiiy resurslar kadastrlari, chiziqli turdagi kadastr obyektlarini yuritish xususiyatlari, yer tuzish, yer kadastrasi, obyektlar monitoringi, yer huquqi, geodeziya, kompyuter grafikasi, kartografiya, fotogrammetriya va masofadan zondlash, yer konturi, yer uchastkasi, yer resurslari, kadastr obyektlari, hududlar davlat kadastrlari obyektlari bo'yicha axborotlarni avtomatlashgan tizimlari, axborotlar tahlili, avtomatlashtirilgan tizimlar, kreativ yechimlar, kadastr ishlarini tashkil etish va boshqarish.